

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

MODERN TÜRK HİKÂYESİNDE FERİD EDGÜ VE ONUN YERİ

VELİ SAVAŞ YELOK,

Doç. Dr., Ankara Hacı Bayram
Veli Üniversitesi Edebiyat Fakültesi
Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları
Bölümü, savas.yelok@hbv.edu.tr

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15292463>

Annotatsiya. Maqola turk adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri Ferid Edguning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan. 1936 yilda Istanbulda tug‘ilib, 2024 yilda vafot etgan Edguning ijodi Ikkinchi jahon urushidan keyingi Turkiyaning ijtimoiy-siyosiy muhitida shakllangan. Uning she‘r, hikoya va romanlarida shaxsning ichki iztiroblari, yolg‘izlik va jamiyat bilan ziddiyatlari realizm va ekzistensializm prizmasida talqin qilinadi. “Hakkarida bir mavsum” kabi asarlarida Hakkaridagi hayot tajribasi orqali inson ruhiyati va milliy o‘zlik masalalari yoritilgan. Edguning o‘ziga xos uslubi turk adabiyotida muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: Ferid Edgu, turk adabiyoti, hikoya, realizm, ekzistensializm, shaxs, jamiyat, Hakkari, ijtimoiy muhit, madaniyat.

Аннотация. Статья посвящена жизни и творчеству Фериды Эдгу, выдающегося представителя турецкой литературы. Родившийся в 1936 году в Стамбуле и скончавшийся в 2024 году, Эдгу формировал свое творчество в условиях социальных и политических потрясений Турции после Второй мировой войны. Его поэзия, рассказы и романы, такие как «Сезон в Хаккари», раскрывают внутренние конфликты личности, одиночество и противоречия с обществом через призму реализма и экзистенциализма. Опыт жизни в Хаккари обогатил его произведения размышлениями о человеческой душе и национальной идентичности. Уникальный стиль Эдгу занимает значительное место в турецкой литературе.

Ключевые слова: Ферид Эдгу, турецкая литература, рассказ, реализм, экзистенциализм, личность, общество, Хаккари, социальная среда, культура.

Annotation. The article examines the life and work of Ferid Edgü, a prominent figure in Turkish literature. Born in Istanbul in 1936 and passing away in 2024, Edgü developed his craft amidst the socio-political turmoil in post-World War II Turkey. His poetry, short stories, and novels, including *A Season in Hakkari*, explore the inner struggles of individuals, loneliness, and societal conflicts through the lenses of realism and existentialism. His experiences in Hakkari enriched his works with reflections on human psyche and national identity. Edgü’s distinctive style holds a significant place in Turkish literature.

Keywords: Ferid Edgü, Turkish literature, short story, realism, existentialism, individual, society, Hakkari, social context, culture.

Ijodkorning to‘liq ismi-sharifi Ismoil Ferid Edgu. Ota tomondan askar naslidan bo‘lgan istanbullik oilaning farzandidir [Mutlu Deveci.7]. 1936 yil 24 fevralda Istanbulda dunyoga kelgan Ferid Edguning bolalik yillari butun dunyoda va Turkiyada yuz bergan ijtimoiy-siyosiy, iqqisodiy taloto‘plarda o‘tdi. Ferid Edgu 2024

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

yili 22-iyulda vafot etti.

Ferid Edguning bolaligi 1950-yillarda Turkiyada ocharchilik bo‘lgan bir paytga to‘g‘ri kelgani bois davrning ijtimoiy-madaniy hayoti uning ruhiyati va ijodiga o‘z ta‘sirini o‘tkazmasdan qo‘ymaydi. U Ikkinchi jahon urushining sovuq izlari ta‘sirida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy qiyinchiliklar ostida 14 yoshdaligidayoq badiiy ijodga kirib keladi. Ijodini she‘rlar yozish bilan boshlaydi. Otasining vafoti tufayli uning hayoti yanada og‘irlashadi, yolg‘izlik uni kitoblar mutolaasiga undaydi. Turk adabiyotidan Xolida Adib, Yoqub Qodri, Reshad Nuri; jahon adabiyotidan Tolstoy singari ko‘pgina klassik adiblar asarlarini zo‘r qiziqish bilan o‘qiydi.

16 yoshida Said Foiq hikoyalari bilan tanishuvi uning hayotida tub burilish yasadi [Mutlu Deveci.7]. 16-17 yoshlarda ekan Ferid Edgu yozuvchi sifatida pesa-romanlari bilan tanilgan Said Foiq bilan tanishadi va uning ijodi shu jarayonda shakllanib boradi.

Boshlang‘ich maktabdan to universitetni tamomlagunga qadar Ferid Edgu ko‘p narsalarni mustaqil o‘rgandi. Bu uning o‘ziga xos fazilati edi. O‘qishini tamomlagandan keyin Go‘zal san‘atlar akademiyasining rassomlik bo‘limiga ishga kiradi.

San‘at va madaniyat o‘chog‘i sanalmish Istanbulda o‘smirlik yillaridan ijod qila boshlagan Ferid Edgu san‘at olamiga ham shu tarzda kirib keldi. Atilla Ilhan, Salah Birsal, Melih Jevdet va Vedat Gunyollar bilan o‘quvchilik yillarida tanishadi. Uning ilk she‘ri 16 yoshida, ya‘ni 1952 yilda “Kaynak” jurnalida nashr qilinadi. O‘sha davrning taniqli gazetasi “Vatan”ning yakshanba kungi sonlarida bosilgan “San‘at” ilovasida hikoyalari chop etildi.

1958 yilda bo‘lib o‘tgan tanlovda muvaffaqiyat qozonib Olmoniyaga (Myunxen)ga ketadi, keyinchalik Parijga borib Akademie du Feuda olti yilcha sopolchilik san‘atini o‘rganadi. Parijning Sorbonna universitetida falsafa, Luvrda esa san‘at tarixi kurslarida tahsil oladi (1964). Bu davrda “Buzg‘un” nomli hikoyalar to‘plamini chop ettiradi.

1964 yilda Turkiyaga qaytgan Ferid Edgu Hakkariga harbiy xizmatga ketadi. Xizmat burchini o‘tagan davr keyinchalik unga “Hakkarida bir mavsum” nomli romanini yozishga asos bo‘ldi. Harbiy xizmatdan keyin yana Parijga ketadi va bir yildan so‘ng Istanbulga qaytib keladi.

Hakkarida yashagan davri uning ijodiga, dunyoqarashining shakllanishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. O‘z yurtidan tashqarida o‘tkazgan hayoti, qolaversa, Hakkaridagi hayot uning ijodida muhim ahamiyatga ega. Ferid Edgu hamon badiiy ijod bilan

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

band, xususan, kichik hikoya janridagi asarlar yozishda davom etmoqda.

Ferid Edgu shaxs va shaxsning yashash uchun kurashini aks ettirgan asarlari bilan turk adabiyotining yetuk yozuvchilaridan biriga aylandi. Realizmni borliq falsafasi taftida eritib shakl va mazmun birligini yuzaga keltirgan asarlarida shakliy ko‘rinish muhim ahamiyat kasb etadi. Ferid Edguning adabiy hayotini *shakllanish* (1950 yillar), *hikoyachilik* (Hakkari boshlari, 1954 - 1964 yillar orasi) va *yetuklikka erishish* (Hakkari yakuni, 1964 yil oxiri) kabi davrga bo‘lish mumkin.

Ijodining ilk davri haqida yozgan adib “Shubhasiz, yozishni juda erta boshlaganimning sababi ham shu bo‘lsa kerak. Chunki u dunyodan bolalarcha qochishni istadim”, degan edi [Ferid Edgü.2]. Ferid Edgu, yuqorida aytilganidek, ijodiga she‘rlari bilan kirib keldi. Turk adabiyotining mashhur shoirlaridan Yunus Emro she‘rlarini sevib mutolaa qilgani esa uning butun ijodi davomida o‘z ta‘sir kuchini o‘tkazgani seziladi: “Bolaligimda Yunus Emro hikmatlarini o‘qib ulg‘aydim. She‘rlardagi o‘sha ovozlari qulog‘imdan hech ketmadi va hali ham shunday” [Mutlu Deveci.7].

Edgu Emro she‘riyatidan ilhom olgan o‘smirlik yillarida G‘arb adabiyotidan o‘qigan “Don Kixot” asarining ham adib uchun u qadar katta ahamiyatga ega ekanligini aytish mumkin: “Hozirchalik necha marotaba o‘qiganimni bilmadim-u, “Don Kixot”ni qayta-qayta o‘qishdan, qaytadan kashf etishdan charchamayman” [Mutlu Deveci.7].

O‘z xalqining shoir va yozuvchilaridan ta‘sirlangan Ferid Edgu adabiy hayotida, xususan, Kafka va Sartr, keyinchalik Gogol va Rebleslar ijodiga ham qiziqish bilan qaradi. Asarlarida nomlari tilga olinmasa-da, uning dunyoqarashiga, insonni tahlil etishiga ta‘sir ko‘rsatgan ijodkorlar sifatida shoirlardan Rimbaud, Apfred Jerri, Eluard, Breton, Mallerme, Holderlin, yozuvchilardan Gogol, Flober, Stendal, Balzak, Virginiya Vulf, Folkner, Musil va Brochlarni ko‘rsatish mumkin.

She‘rlar yozib ijodini boshlagan va ko‘p o‘tmay adabiyot olamida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan Ferid Edgu hikoyalar yoza boshlagan paytda ham she‘riyatdan uzilib qolmaydi. Dastlab “G‘arb” oqimi she‘riyati ta‘siri ostida bo‘lgan ijodkor keyinroq unga muxolifatda bo‘lgan “Moviy” jurnalining atrofida shakllangan “Moviychilar” oqimiga qo‘shilgan.

Ferid Edgu hikoyalarini Said Foiq va uning ijodi bilan yaqindan tanishgandan keyingina yoza boshlagan. Ferid Edguning dastlabki hikoyalaridagi real hayot tasviri keyingi davrlarda yozilgan asarlarida taraqqiy topib bordi. Dastlabki hikoyalaridagi hayotda ezilgan, chorasiz, turli kelishmovchiliklar sabab yolg‘iz qolgan va odamlarga

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

begonalashib borayotgan, maqsadsiz va tushkun kayfiyatdagi qahramonlari o‘sha davrdagi yozuvchi ruhiy holatini aks ettirgan. Hakkarida yozgan asarlarida esa Edgu taxayyul va syurrealizm unsurlari vositasida hayotni, dunyoni va inson ruhiyatini tasvirlash orqali o‘z-o‘zini izlayotgan ijodkor shaxsini aks ettirdi. Shaxsning o‘zi va dunyo/hayot bilan yuzlashgani tilga olingan bu asarlarida global inson haqiqatini shaxsiy fikrlar, ramzlar bilan boyitdi.

Said Foiq, Kafka va Chexovning “vaziyat” hikoyalaridan andoza olgan Ferid Edgu o‘ziga xos shakl va mazmun yaratish, o‘zgacha “til” bilan hikoyalar yozdi. Uning hikoyalariga xos bo‘lgan jihatlardan yana biri, bu ijodkorning ichki olami bora-bora ko‘lami kengayib borgan asarlari orqali umidsizlikka aylangan umidni yaqqol tasvirlashidir [Ferid Edgü.6].

Hakkarida yoza boshlagan hikoyalarida shaxs va uning ichki dunyosi o‘ng planga chiqdi. Adib bu davrda yaratgan hikoyalarida chuqur depressiya, o‘zgacha taxayyul dunyosiga ega xarakterlarni, shaxslarni tasvirladi [Atila İlhan.1]. Bu davr hikoyalarida bosh ko‘targan xarakterlar orqali shaxsning ichki kechinmalariga oyna tutgan Edgu zamonaviy ekzistensialistik falsafa tushunchasini ifoda etdi [Ferid Edgü.4].

1964 yildan keyingi va hozirgacha davom etayotgan ijodiga mansub hikoyalarida harbiy xizmatni o‘tagan vaqtdagi Hakkarida yashagan hayot haqiqatlarini qaytadan kashf etganligi seziladi. Uning o‘ttiz uch yoshida “qaytadan tug‘ilishi” [Ferid Edgü.5] ko‘zga tashlanadi. “Mening tug‘ilishim Hakkarida haqiqatga aylandi», - degan [Ferid Edgü.3] adib bu davrda “dunyoni o‘zgartirishdan umidini uzgan yozuvchi sifatida dunyoni qayta mushohada qiladi” [Mutlu Deveci.7].

Ferid Edgu Hakkar davri oxirlaridagi asarlarida haqiqatni ming bir ko‘rinishda aks ettiradi. Borni borligicha aks ettirish, tanqidiy yondashuv va yaratgan obrazlarni salbiy tarzda yoritib, hayotning shaxsni yemirishini betaraflik bilan ifodalaydi. Ziyoli – xalq, shaharlik – qishloqlik, davlat – xalq markazidagi ziddiyatlar xususida to‘xtalib, ijtimoiy adolatsizlik va tubanlashish; shuningdek, hayot tarqoqligi, chorasizlik, yolg‘izlik singari shaxsiy makonga bog‘liq holatga keltirgan unsurlarni asarlarida ko‘rsatib beradi.

Turk tilining imkoniyatlaridan kelib chiqib tilga yangi kashfiyotlar kiritish istagida bo‘lgan Ferid Edgu she‘r, hikoya, roman, esse, va drama turidagi asarlarida hayot kurashini aks ettira olgan ijodkordir. Uning ijoddagi hissiyoti serqirra asarlarida namoyon bo‘ladi. U ijodkor shaxsiyatini, qayg‘usiyu umidlarini yozuvchi hayotidan emas, balki asarlaridan izlash kerakligini ilgari suradi.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Ferid Edguning o‘ziga xosligi uning tasvirlash mahorati orqali yuzaga chiqadi. Uning adabiy faoliyati orzu yoki shunchaki ehtiroslar natijasi o‘laroq yuzaga kelmagan, balki ijod mas‘uliyatini his qilib uning originalligini kashf etishga bag‘ishlangan. Turk adabiyotida Said Foiq, jahon adabiyotida Kafka, Bekket, Sartr, Mikaus, Chexov kabi yozuvchilar ijodidan ta’sirlangan adib ularga taqlid qilmasdan o‘z uslubiga ega yozuvchi sifatida adabiyotda iz qoldirishga muvaffaq bo‘ldi.

Ferid Edguning uslubi sodda va tushunarli, qisqa va lo‘nda iboralar orqali mazmundor lavhalarni aks ettirishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uning chizma san’atlarga bo‘lgan qiziqishi, balki ijodida minimalist sifatida shakllanishiga ta’sir qilgandir. Kichik voqeani bo‘yoqdor tasvirlash, sodda til va tushunchalar uning ijodiga xos.

Ferid Edgu asarlaridagi markaziy masala shaxsdir. U shaxsdagi jamiyatni, jamiyatdagi shaxsni aks ettirishga intiladi. O‘z hayotidan mamnun bo‘lmagan shaxs dunyoni labirint sifatida idrok etishini talqin qiladi. Qarshisida jim qolgan narsalarni yozishga harakat qilgan yozuvchi shaxsning bir lahzalik holatini hozir va shu erda bo‘lganligiga bog‘lab matnga olib kiradi.

Bilimdonlarga xos nazar bilan tushunib, ma’no bag‘ishlagan va ularni sinchkovlik bilan yoritgan va doimiy yangilanishlar yo‘lidan borgan Ferid Edgu jamiyat ichida “Men”ning ichki olamini va o‘zligini ko‘rsatib berishga harakat qilgan adiblardan biri. Kundalik hayot haqiqatini, mavhum yoki aniq, tush yoki haqiqat, fotosurat yoki montaj jihatlari bilan tergov qilgan yozuvchining tinish belgilaridan eng ko‘p yoqtirgani so‘roq belgisi ekanligi tergovchi harakatlarining xulosasidir.

Ferid Edguning asarlari shaxsning ichki iztiroblarini bor bo‘y-basti bilan yoritadi, insonning barcha xatti-harakatlariga tashqi muhit ta’sir etishini ko‘rsatishga intiladi. Uning asarlaridagi shaxslar salbiy oqibatlar ta’siri ostida chorasizlik, imkonsizlik va aloqasizlik asosida shakllangan yolg‘izlikni yashayotib hayotdan umidini uzganligi ko‘rinadi. Bu bosqichda inson ba’zan o‘ziga yoki atrofdagilarga begonalashib hayotning betartibligini his qiladi va bu betartiblikdan qochishga intiladi. Hayot va o‘limdan qochishning imkoni yo‘qligidan ularning umidlari armonga aylanadi. Ferid Edgu bunday tasvirlash uslubi orqali pessimist va umidsiz yoki optimist va umidli xarakterlarni yaratadi.

Yozuvchi o‘z hayotida yuz bergan ba’zi voqealarni ham asarlarida hikoya qilib beradi. Birinchi shaxs nomidan gapirib insonning bu dunyoga mehmon ekanligini ta’kidlaydi. Boshqacha haqiqat ichida insonni turli ko‘rinish va vaziyatlarda tasvirlab asar mohiyatini yanada teranlashtiradi.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Birgina lahza ifodasi bo‘lmish hikoyalari bilan adabiyotga yangicha ovoz, yangicha nafas, yangi umid olib kirgan Ferid Edgu yanada insoniy, yanada to‘g‘ri va haqiqiy kelajakni yoritishga harakat qiladi. Uning adabiy asarlarida har on yangilanib turgan hayot tasvirlarini ko‘ramiz. U voqealar asosida voqea yaratmaydi, balki tashqi haqiqatning farqli holatlarini ifodalaydi. Ferid Edguning tili va zamonaviy hikoya qilish uslubi namuna bo‘lgan kichik hikoyalarning markazida shaxs turadi. Shakl va mazmun birligi birlamchi bo‘lgan hikoyalarda zamon, makon kabi asar unsurlarini tuyish uchun kitobxon asarni sinchkovlik bilan o‘qishi kerak bo‘ladi. Adib matn ichi - matn tashqarisidagi ramzlarga ega kichik hikoyalarda barcha tafsilotlardan kechib real haqiqatni juda qisqa, tub mohiyatni juda sodda shaklda qalamga oladi. Shaxsning bor bo‘lishi va shaxs sifatida shakllanish jarayonini tilga olgan bu hikoyalarda hayot parokandaligini his etgan va o‘zligiga ega bo‘lish uchun qilgan harakatlari bilan hayot mojarosini davom ettirgan shaxslarning turli qiyofalari xususida to‘xtaladi.

Ferid Edgu asarlarida shaxs mavjudligini real olam shakllantiradi. Shaxs o‘zicha yaratuvchan, o‘z-o‘zining yaratuvchisi bo‘lish istagida Tangrining adolatiga shubha bilan qaraydi. Yomonlarning yaxshilar ustidan g‘alabasida ham Yaratganni ayblaydi.

Hikoyalarda zamon kichik bir lahza bilan chegaralangan. Shaxsning onda yashagan almashinuvlari qalamga olinib miqdor va sifat jihatdan zamonga ajratiladi. Shu jihatdan u hozirgi o‘tgan zamon fe‘l maylidan foydalanib o‘tmish va bugunni parallel holatda olib boradi.

Ferid Edgu inson-makon birligini vazifaviy xususiyatlar bilan ta‘minlab matnga olib kirish vositasida shaxsning bugun shu erdaligini ifodalaydi. Olamga uloqtirilganini his qilgan shaxs makonni surgun joyi, labirint sifatida tushunadi. Makon o‘zligini ko‘rsatish uchun qahramonlar holatini aks ettirgan oyna sifatida talqin etiladi. Sharqqa oid makonlar esa o‘zini topish, tanish, anglash orqali haqiqatga aylantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Makonning fizik salbiyligi va jo‘g‘rofiy ahvolning chegaralanishi, shaxsning narsaga aylanib / hamma kelgan holatga kelishiga zamin tayyorlaydi. Uning hikoyalarda ”Men”ning ko‘rinishi; o‘zini anglatgan “Men” / qahramon hikoya qiluvchi; hikoya qahramonlarini tanitgan “Men” va hikoya qahramoni yoki izlanuvchan holatdagi yozuvchi “Men” shaklidir. “Men” asosiga qurilgan asarlarida tasvir va mohiyat yanada og‘irlashadi. Uning asarlarida dialoglarga kam o‘rin berilgan. Shuning uchun ham asosan tasvir asosida qahramonlar xarakterini bilib olamiz.

Borliq, izlanuvchanlik, syurrealizm va ko‘rishga oid san‘atlardan ta’sirlangan Ferid Edgu asarlarida rassom shaxsiyatini aks ettiradi. Ferid Edgu hayot-fikr va

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

haqiqat-xayol kuchi olishuvidan san’at asarini maydonga keltirgan mohir qalam sohibidir.

HIKOYA KITOBLARI: “*Qochoqlar*” (1959), “*Buzg’un*” (1962), “*Ov*” (1967), “*Kemada*” (1978), “*Hayqiriq*” (1982), “*Mingbirhijo*” (1991), “*Sharq hikoyalari*” (1995), “*Mana dengiz, Mariya*” (1999), “*Davom*” (2001), “*Do ovozi*” (2002), “*Qor zim-ziyo bo‘g‘inlar*” (2004), “*Kompaslar*” (2004), “*Ishga yaroqsiz doira*” (2005), “*Nijiniskiy hikoyalari*” (2007).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atila İlhan. Çılgınlığın Kapısını Zorlamak ya da ‘Kaçkınlık’ Üzerine. Dost. Şubat 1960.
2. Ferid Edgü, İnsanlık Hâlleri, Sel Yayınları. İstanbul, 2003.
3. Ferid Edgü. Çılgılık. Ada Yayınları. İstanbul, 1982.
4. Ferid Edgü. İlk Öyküler. Yapı Kredi Yayınları. İstanbul, 2003.
5. Ferid Edgü. Kimse. Ada Yayınları. İstanbul. 1980.
6. Ferit Edgü. O. Ada Yayınları. İstanbul, 1986.
7. Mutlu Deveci. Varoluş ve Bireyselleşme Açısından Ferit Edgü’nün Öykü ve Romanlarında Yapı ve İzlek (Doktora Tezi). Fırat Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü. Elazığ, 2005.